BARKAMOL YOSHLAR TARBIYASIDA GENDER MUNOSABATLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

D.A. Dadabayeva
Guliston davlat pedagogika instituti
1-kurs magistranti
e-maildadabaeva86@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada gender –barkamol yoshlar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, madaniyat, ta’lim, ilm-fan sohalarida namoyon bo‘layotgani, ayol-qizlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi roli oshayotgani, jamiyatda ayol-qizlar o‘z o‘rnini topishi uchun davlat tomonidan barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berilayotgani hamda G‘arb va Sharq tamaddunining rivojlanish tendensiyasi bilan bir qatorda, sharqona gender tengligining o‘ziga xos jihatlari allomalarning qarashlari misolida ham fikr yuritilgan**.**

Kalit so‘zlar: gender tengligi, ota-ona va farzand munosabatlari, oila mustahkamligi, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq, G‘arb va Sharq tamadduni, sharqona gender tengligi.

Annotation. In this article, gender – relations between women and men are manifested in all spheres of society’s life and activities, including culture, education, science, the increasing role of women and girls in social and political life, as well as to the fact that the state creates all the conditions and opportunities for women and girls to find their place in society and the development trend of Western and Eastern civilizations, the specific aspectsof Eastern gender equality are also highlighted in the example of scholars’ views.

Keywords: gender equality, parent-child relations, family stability, culture, education, science, equal rights for women and men, Western and Eastern civilization, Eastern gender equality.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida so‘zlagan nutqida: “Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat’iy davom ettiramiz”, – deb ta’kidladilar. Ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender

tenglik) muvofiq 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

• ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
• ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
• aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;
• huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta’minlash uchun mas’ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me’yorlar asosida o‘qitish. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” , deb belgilangan. Demak, gender tengligining ham xalqaro, huquqiy ham konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlangan. Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham anglatadi.

“Gender” so‘zi inglizcha “gender”, lotincha “genus” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “zot, jins, kelib chiqish” ma’nosini anglatadi. Agarda biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo‘lsa, gender ayol va erkaklarning jamiyatdagi o‘rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o‘z o‘rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlashning qonunchilik va institutsional negizini mustahkamlash yo‘lida muhim choralar ko‘rildi.. Ta’kidlash joiz, qabul qilingan normativ-me’yoriy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar O‘zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me’yor va standartlariga to‘liq mos keladi. Odatda biz ayolni, avvalambor, ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak” , – deb ta’kidlagan. Biologik jins va ijtimoiy jins differensiyasi 1935-yilda Polineziya orollarida o‘smirlarning ijtimoiylashuvini tadqiq etgan amerikalik antropolog Margaret Mid tomonidan tahlil qilingan. Gender tushunchasi shaxs ijtimoiylashuvi bilan uzviy bog‘liq. Insonlar tug‘ilishi bilan ijtimoiylashadi, o‘zi yashayotgan jamiyatning axloq, fe’l-atvor, xulq me’yorlari, ijtimoiy determinant (lot. determinans – aniqlovchi)larga muvofiq rivojlanadi, voyaga yetadi va o‘zini tutishni o‘rganadi. Insonlarga oila, maktab, professional muhit, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari va madaniy normalar katta ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs umri davomida jinsga bog‘liq ijtimoiy konstruksiyalar ta’sirida rivojlanadi. Masalan, o‘g‘il bolalar ongiga o‘zlarining his-tuyg‘ularini sezdirmaslik, jismoniy kuchni namoyon etish, harbiy xizmatga tayyorgarlik ko‘rish singdiriladi. Uy mehnati esa azaldan ayollarning zimmasidagi vazifa deb tushuntiriladi. Aksariyat barcha rivojlangan mamlakatlarda barqaror gender taqsimotiga ko‘ra erkaklar mehnat bozorida, ayollar esa uy mehnati bilan band. Jahonning barcha qit’alarida uy ishlarining aksariyat og‘irligi, ya’ni 70-75% ayollarning zimmasiga to‘g‘ri keladi. Gender tengligi inson huquqlarining ajralmas qismi bo‘lsa-da, dunyoda gender bilan bog‘liq kamsitilish, gender bo‘yicha diskriminatsiya (lot. diskriminatio – farqlash), huquqlarning poymol etilishi, gender asimmetriya (simmetriyaning bo‘lmasligi yoki buzilishi) keng tarqalgan. Gender asimmetriya ijtimoiy hayotning ayrim sohalarida ayollar va erkaklar tengsizligini anglatadi. Masalan, davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar qabul qilish, yirik O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol va o‘rta biznes sohasida erkaklarning ustunlik qilishi, iqtisodiyotning kam daromadli sohalarida esa ayollarning ustunlik qilishini ko‘rish mumkin. 65% qizlar boshlang‘ich va o‘rta ta’limni o‘g‘il bolalarga qaraganda kam oladilar.

Ilm-fan yoki injeneriya sohasida ayollar ishtirokining ko‘rsatkich past. Ish bilan ta’minlanish, karyera, oylik maosh miqdori, yuqori lavozimlarga tayinlanish masalalarida muammolar saqlanib qolmoqda. Dunyo bo‘ylab ko‘pchilik ayollar oilaviy, maishiy va jinsiy zo‘rovonliklarga qarshi huquqiy himoyaga muhtoj. Jins bo‘yicha ish haqida tafovut dunyo

miqyosida 23% ni tashkil etadi va qishloq joylarda 40% gacha yetadi. Ayollar dunyo aholisining qariyb yarmini tashkil etsa-da, milliy parlamentlar a’zolarining 18,4% i ayollar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Milliy parlamentda ayollarning ulushi o‘rtacha 25% dan kam. Dunyo bo‘yicha 17 ta davlat yoki hukumat rahbari ayol kishidir. Yevropada yirik kompaniyalarning atigi 3% ini rahbar ayollar boshqaradi . Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik genderga asoslangan zo‘ravonlikning eng jiddiy shakllaridan biridir. Ayollar va qizlar turli xil zo‘ravonlik shakllariga duch kelishadi, ya’ni oilaviy zo‘ravonlik, jinsiy ta’qiblar, jismoniy, psixologik, iqtisodiy va boshqalar. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi har beshinchi ayol jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka uchraydi. Yevropadagi ayollarning 20% dan 50% gacha qismi oilaviy zo‘ravonlikdan qiynalishadi. Iqtisodiy tenglikda ham, ya’ni oziq-ovqat mahsulotlarining 50% i xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqariladi, ammo ayollarning 1% xususiy mulk egasidir. Dunyo aholisining qashshoq qismining 70% i ayollarga to‘g‘ri keladi.

O‘tmishdan ma’lumki, sharq xalqlarida tarbiya borasida ulkan ma’naviy meros yaratilgan. Mana shunday an’analarimizdan biri ayollar, onalar, xotin-qizlar qizlar tarbiyasidagi boy pedagogik tajriba hisoblanib, qizlar tarbiyalayotgan oilalar millat kelajagiga mas’ul eng katta tarbiyachilar hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, xotin-qizlarning fazilatlari, ijtimoiy sifatlari, jamiyatdagi o‘rni, avvalo, oilada shakllanadi. Yurtimizda o‘zbek qizlarining ko‘rkam xulqli bo‘lishi milliy tarbiyaning asosiy talablaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bunda esa eng katta mas’uliyat ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash kerakki, qiz bolalar tarbiyasida asosiy ta’sirchan kuch-qudrat bu onadir . Ota ko‘pchilik xalqlarda oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta’minlash qolaversa, oilaning xo‘jalik ishlari bilan band bo‘ladi.

Xulosa. Har bir sohada olib borilayotgan chuqur islohotlarga innovatsion yondashuv zaruriyati vujudga kelgan bugungi kunning eng asosiy talabi xalqning dardi bilan yashash, xotin-qizlarning og‘irini yengil qilish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitning barqarorligini ta’minlashga erishishdir. Chunki, har bir ayolning ortida uning oilasi, farzandlari turadi. Shunday ekan, bizning yurtimizda har bir ayolning hayotdan rozi bo‘lib, baxtli yashashi davlatimiz e’tiborida turgan eng muhim masaladir Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan talaba-qizlarni mutaxassislik asosida tayyorlash va ular yordamida mamlakatimiz xotin-qizlari salohiyatidan jamiyatimiz ma’naviyati va moddiy farovonligini yanada oshirishning falsafiy-ijtimoiy xususiyatlari hamda pedagogik-psixologik o‘ziga xosliklari mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1992.
2. Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-iyun oyida Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi.
3. http: //ec.europa. eu/social/main.jsp.
4. https://www.un.org/ru/observances/equal-pay-day.
5. Platon. Dialogi [Dialogues]. Translation from ancient Greek. Khar’kov, Folio Publ., 1999. –383 p.
6. Гуревич Д., Рапсат-Шарле М. -Т. Повседневная жизн женщин в Древнем Риме. – Москва, 2006. – С. 239–240.